

AVLONIYNING “MUKTASAR TARIXI ANBIYO VA TARIXI ISLOM” ASARIDA YOSHLARNI DINIY QADRIYATLARGA HURMAT RUHIDA TARBIYALASH MASALALARI

Raxmatillayev Fatxulla Izzatilla o‘g‘li

Toshkent davlat pedagogika universiteti 2-kurs magistranti

Annotation: In this article, in Awlani's work "Brief history of history and history of Islam", the main goal is to mobilize the energy of young people to build an enlightened society that the future generations want to build. intended. Awlani's "A Brief History of Islam" revealed that enlightenment is a "matter of life and death" for humanity.

Key words: Abdulla Avloni, modern schools, old school, new school

Mustaqillik yillarida o‘zbek xalqining o‘z tili, adabiyoti, san'ati va tarixini yanada chuqurroq, ularning butun nafosati, boy tarovatini ulug‘lagan holda o‘rganish imkoniyati kengaydi. Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, Bu davrda Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Ubaydulla Xo‘jayev, Abdurauf Fitrat, Ibrat domla, Abdulhamid Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy, Ashurali Zohiriy, Hoji Muin va boshqa yana yuzlab ulug‘ insonlar milliy uyg‘onish va millatparvarlik harakatining oldingi saflarida turdilar. Ular yangi usul maktablari bilan bir qatorda, odamlarning dunyoqarashi va turmush tarzini o‘zgartirishga qaratilgan gazeta-jurnallar, nashriyot va kutubxonalar, teatrlar tashkil etdilar. Vatanimiz ozodligi va xalqimiz baxt-saodati yo‘lida jonini fido qilgan jadidlarning ilmiy-ma’rifiy, adabiy-badiiy merosi biz uchun bugun ham beqiyos ahamiyatga ega [1]. XX asr boshida millatning ma’rifati uchun kurashgan jadidchi ajdodlarimiz o‘z faoliyatlarida o‘qitish tizimini yangilash uchun muntazam harakatlari natijasida “usuli jadid” deb nomlangan yangicha dunyoqarash va tafakkurni shakllantiradigan ta’lim tizimi vujudga keldi.

Yangi usuldagi maktablar ochishni maqsad qilgan bo‘lsalarda, bu tizim dastlabki yillari butun mamlakat bo‘ylab keng tarqalmadi, davlat ta’lim tizimi sifatida shakllanmadi. Sababi ta’lim tizimidagi muammolar, aholining savodxonlik darajasi, o‘quv darsliklari va qurollarining yetishmasligi inobatga olingan edi. Yangi usul maktablari tashkil etilgunicha o‘qitish tizimi asosan eshitish orqali va qisman eski adabiyotlarni o‘qib o‘zlashtirishga asoslangan edi. To‘g‘ri rus-tuzem maktablari mavjud edi lekin millatparvar jadidlarimizning asosiy maqsadi yangilangan milliy ta’lim tizimini yaratish edi. Shu maqsadda dastlab, “Buxoro jadidchilari o‘z maktablari uchun o‘zbek va fors tillarida, Turkiston va boshqa o‘lkalardagi jadid maktablari uchun



ham turli olimlar hamda o'qituvchilar tomonidan mahalliy tillarda shu yo'sinda darslik va qo'llanmalar tuzilgani manbalardan ma'lum"[2]. 1910 yillarda "usuli jadid" maktablari keng quloq yoya boshladi, jumladan, o'sha vaqtlarda bir nomda bir necha qo'llanmalar yaratilgani kabi bir necha «muxtasar islom tarixi» kitoblari chop qilindi. Masalan Samarqandda Mahmudxo'ja Behbudiyning «Muxtasar islom tarixi» risolasi (1913) o'zbek tilida va Abdurauf Fitratning «Muxtasari ta'rix islom» asari (1915) fors tilida chop qilingan edi. Shuningdek, Munavvarqori Abdurashidxon va Shokir Sulaymonning ham qisqa islom tarix yaratganliklari bizga tarix saboqlaridan ma'lum. Toshkentda ham ma'rifatparvar Abdulla Avloniy tomonidan yuqoridagi yuqorida nomi bayon etilganidek risola e'lon qilindi. Uning mundarijasi Avloniyga qadar bu mavzuda bitilgan asarlardan jiddiy farq qilmasa-da, o'qitish usuli jihatidan nisbatan to'liq ma'lumot berishga mo'ljallangan edi.

Asar hajman ham Behbudiy va Fitrat risolalaridan bir oz farqli bo'lib, bu bilan har bir islomiy hodisaga imkon qadar tafsil berib, yosh o'quvchilar tomonidan oson qabul etilishi rejalashtirilgan edi. Shu nuqtai nazardan qaraganda Fitrat asarida tarixiy voqe'lik e'tibor qaratilgan. Avloniy risolasida masalaga pedagogik jihatdan yondoshilgan bo'lib, ya'ni o'quvchilarga osonroq yetkazish harakat qilingan. mumkin. Abdulla Avloniy faqat tarixiy voqealarning o'zini tasvirlash bilan cheklanmagan, balki chiqariladigan saboq-xulosaga asosiy e'tibor qaratilgan. Tabiiyki, muqaddas islom tarixining asosiy qismi Payg'ambarlik tarixidan iborat. Bu yo'sinda yaratilgan Rabg'uziyning «Qissasul anbiyo», Alisher Navoiyning «Tarixi anbiyo va hukamo» asarlari yaratilgani e'tirof etish kerak. Rabg'uziy qissalarida voqeaning batafsil bayoni talqinlardan kelib chiqib, xalqona usulda tushuntirib berishga qaratilgan bo'lsa, Hazrat Navoiy asari xos kitobxonlar uchun mo'ljallangan bo'lib, unda Payg'ambarlik tarixining asosiy sifatlarigina bayon qilinadi. « Qissasul anbiyo»dagi 72 qissaning so'ngida Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) tarixlari bayon etilgan bo'lsa, Hazrat Navoiy asari Payg'ambarlik tarixida Saodat asrini boshlab bergan Muhammad Payg'ambar (s.a.v.) davriga kelganda yakunlanadi. Avloniy va jadidchilar tomonidan yaratilgan muxtasar islom tarixlarining ham pedagogika va ilohiyot tarixida alohida o'rni bor. Ular yangi maktablarning o'quvchilar uchun islom tarixidan saboq berish orqali, avvalo, ma'rifatparvarlik g'oyalarini targ'ib qilishni ko'zlagan edilar. Ushbu asarning asosiy qismi o'quvchilarga quyi sinflarda o'rgatilgan buning sababi bolalarning yoshligidanoq iymonli-e'tiqodli bo'lib o'sishi jadidlar yaratmoqchi bo'lgan jamiyatning yutug'i va kelajagi deb hisoblagan. Jamiyat komillik sari intilishga harakat qilsa, e'tiborni ko'proq yosh avlodning ta'limi va tarbiyasiga qaratishi lozimligini bugun globallashgan jamiyat isbotlab berdi. «Bugungi kunda dunyoning juda ko'p mintaqalarida insoniy qadriyatlar yemirilmoqda. Ayniqsa, pandemiya



sharoitida ayrim o'lkalarda betoqatlilik, tajovuzkorlik kayfiyatlari kuchayib bormoqda. Mana shunday keskin vaziyatda ulug' mutafakkirlar aytganidek, dunyoni ezgulik, mehr-shafqat, insoniylik qutqaradi» [3:278]. Jadidchilarimiz XX asr boshida jamiyatda axloqiy qarashlar tizimini insonlar faoliyatini tartibga soluvchi, ularni ijtimoiy adolatga yo'naltiruvchi ma'naviy asosni yaratishga intilganlar. Inson kamolotining kushandasi bo'lgan g'ayriaxloqiy normalarning vujudga kelishi va shakllanishini oldini olishga aynan o'sha asar muhim mezon bo'lib xizmat qilgan.

Asarda asosiy maqsad yoshlarning iymon-e'tiqodi butun sof qalbli bo'lishi jadidlar barpo etmoqchi bo'lgan ma'rifatli jamiyat qurish yo'lida ularning kuch-g'ayratini safarbar etish ko'zlangan. Avloniyning «Muxtasar islom tarixi» asari, ma'rifat insoniyatning «hayot-mamot masalasi» ekanini anglatishga e'tibor bergan. ham tushunganday bo'ladi.

Abdulla Avloniy asarida "Qur'on"da keltirilgan barcha payg'ambarlarning ismlari uchraydi, "Muxtasar tarixi anbiyo va tarixi islom"da tadrijiy tarzda Odam Atodan boshlanib, Muhammad alayhissalomgacha bo'lgan payg'ambarlar haqida qisqacha maktab bolalari uchun tushunarli bo'lgan hikoyalar bayon etilgan va Muhammad payg'ambarimizning avlod-ajdodlari haqida ham ma'lumotlar keltirilgan. Bundan tashqari diyonat, islomiyat, nazorat, g'ayrat, riyozat, qanoat shijoat, ilm, sabri hilm, intizom, nafs, vijdon, vatanni sevmok, haqqoniyat, namuna, iffat, hayo, idrok va zako, iqtisod, viqor, xavf va rijo, itoat, haqshunoslik, xayrixohlik, munislik, sadoqat, muhabbat, afv kabi axloqiy kategoriyalarni asardagi qissa va naqlar mazminiga joylagan. Bundan ko'zlangan maqsad yoshlarni diniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashdan iborat edi. Yoshlarni ilm olishga da'vat etar ekan u diniy ilm bo'ladimi, dunyoviy ilm bo'ladimi ularning maqsadiga to'xtalib, "Ilm insonlarning madori hayoti, rahbari najotidir. Ilm o'rganmak, olim bo'lmak uchun maktabga kirmak, muallimdan ta'lim olmak lozim, aqlsiz kishilar va maktabga kirar, va na muallimni bilar. Ilm deb o'qimak, yozmakni, yaxshi bilmak, har bir kerakli narsalarni o'rganmakni aytadur. Ilm dunyoning izzati... Ilm inson uchun g'oyat oliy va muqaddas bir fazilatdir. Zeroki, ilm bizga o'z ahvolimizni, harakatimizni oyina kabi ko'rsatur. Zehnimizni, fikrimizni qilich kabi o'tkur qilur. Savobni gunohdan, halolni xaromdan, tozani murdordan ayirub berur. Butun hayotimiz, salomatligimiz, saodatimiz, sarvatimiz, maishatimiz, himmatimiz, hayotimiz, dunyo yoki oxiratimiz ilmg'a bog'liqdir"[4:11]. Ilm yoshlarda sog'lom vujudni, aqlni va axloqni tarbiyalash mezoni ekanligini izohlab, jamiyatda ma'naviy-axloqiy uyg'onishni yuzaga keltiruvchi omillar ekanini asoslab bergan.

Har qanday jamiyatda inson axloqiy kamolotini ta'minlash eng muhim hayotiy ehtiyoj hisoblanadi. Insonning har jihatdan yuksak axloq sohibi bo'lishga intilishi tasodifan paydo bo'lgan hodisa emas. Balki bu insoniyatning ko'p ming asrlik tarixida



intilib kelgan ezgu maqsadlari timsolida yashab kelmoqda. Shu bois axloqiy jihatdan yetuk va barkamol avlodni tarbiyalashdek vazifani aynan jadidlar strategik maqsadga erishishda axloq-odob masalasi insonparvar g'oyalarni ijtimoiy hayotga tatbiq etishni zamonasining alohida ahamiyat kasb etadigan vazifasi sifatida qaragan.

Ma'lumki, jadidlarning Turkiston ozodligi uchun kurash dasturida uch asosiy yo'nalish mavjud edi. Birinchisi - yangi usul maktablari tarmog'ini kengaytirish, ikkinchisi - umidli yoshlarni chet ellarga o'qishga yuborish va nihoyat, uchinchisi - turli ma'rifiy jamiyatlar tuzish hamda ziyolilarning kuchli firqasini tashkil etishga qaratilgan gazetalar chop etish edi. Mazkur harakat maqsadalariga ko'ra, Vatan, millat va davr oldida turgan ulkan ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy muammolarni Turkiston xalqlarini ma'rifatli qilish, ular hayotini qaytadan madaniylashtirish va zamonaviylashtirish yo'li bilangina hal etish mumkin edi. Bunday miqyosli va tarixiy vazifani tor doiralarga mansub yoki muayyan tabaqaviy qarashlarga asoslangan oqim hal qilolmasdi.

Xullas, hali uyushmagan jadidlar zamonaviy taraqqiyot talablariga javob bermaydigan xalq ta'limi tizimini isloh qilish, islom ta'limotini aqidaparastlikdan mosuvo etishdan iborat oddiy ma'rifiy va madaniy ishlarni maqsad qilib qo'yadilar. Chunki ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy sohalarda mutaassiblik, johillik, xurofotning hukmronligi, o'quv uslubining o'ta ibtidoiy va qoloqligi, aniq maqsadlar aks etgan dasturlarning yo'qligi maktab va madrasalarda asosan diniy ta'limga e'tibor berilmayotganligiga sabab bo'lgan. Shu bilan birga, o'quv muassasalarining rasman ruhoniylar ixtiyorida bo'lganligi va ularning ko'pchiligi o'ta mutaassibli ta'lim tizimini isloh qilishga, islom ta'limotining o'zini qotib qolgan aqidaparastlikdan xalos qilishga imkon bermas edi.

References

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi.
2. <https://kh-davron.uz/kutubxona/islomiy-adabiyot/abdulla-avlony-muxtasar-tarixi-anbiyo-va-tarixi-islom.html>.
3. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: O'zbekiston, 2021. – Б. 278.
4. Abdulla Avloniy. Turkiy Guliston yoxud axloq. www.ziyouz.com kutubxonasi. B.-11.
5. Qaxharova, M., & Absattorov, B. M. (2020). Evolution of views on ethics, ethical criteria and ethical standards. *The Light of Islam*, 2020(1), 110-115.



6. Абсаттаров, Б. М., & Юсупова, Н. А. (2020). Эволюция взглядов об этике, этических критериях и этических нормах. *Учёный XXI века*, (12-1 (71)), 75-81.
7. Absattarov, B. M. (2019). EVOLUTION OF VIEWS ON ETHICS, ETHICAL CRITERIA AND ETHICAL STANDARDS. In *НОВАЯ НАУКА: СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ* (pp. 135-141).
8. Absattarov, B. M. (2019). SPIRITUAL AND MORAL DEVELOPMENT OF THE PERSON IN MODERN WORLD. *Central Asian Problems of Modern Science and Education*, 4(2), 167-173.
9. Mamarasulovich, A. B. (2021). IMPROVEMENT AND DEVELOPMENT OF ETHICAL CRITERIA AND NORMS.
10. МАМАРАСУЛОВИЧ, А. В. (2021). Баркамол ёшларни тарбиялашда маънавий-ахлоқий мезон ва меъёрларнинг ўрни. *АНДИЖОН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ ИЛМИЙ ХАБАРНОМА*.
11. Мамарасулович, А. В. (2022). RELIGIOUS AND PHILOSOPHICAL FOUNDATIONS OF HUMAN MORAL DEVELOPMENT. *American Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 11, 154-163.
12. Мамарасулович, А. В. (2022). RELIGIOUS AND PHILOSOPHICAL ASPECTS OF HUMAN MORAL DEVELOPMENT. *Conferencea*, 197-201.
13. Мамарасулович, А. В. (2021). IMPROVEMENT AND DEVELOPMENT OF ETHICAL CRITERIA AND NORMS.
14. Абсаттаров, Б. (2019). ШАХС МАЪНАВИЙ-АХЛОҚИЙ БАРКАМОЛЛИГИ МЕЗОНЛАРИНИНГ ФАЛСАФИЙ ТАЛҚИНЛАРИ. *Scienceweb academic papers collection*.
15. МАМАРАСУЛОВИЧ, А. В. (2020). ИНСОН ФАОЛИЯТИДА АХЛОҚИЙ МЕЪЁРЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШ МЕЗОНЛАРИ. *Вестник Каракалтакского государственного университета им. Бердаха*.
16. МАМАРАСУЛОВИЧ, А. В. (2020). Evolution of views on ethics, ethical criteria and ethical standards. *Scienceweb academic papers collection*.
17. МАМАРАСУЛОВИЧ, А. В. (2019). Общность общечеловеческих и национальных ценностей в нравственном развитии. *ILM SARCHASHMALARI*.
18. МАМАРАСУЛОВИЧ, А. В. (2018). INNOVATORY METHODS OF WORKING WITH UNORGANIZED YOUTH. *European Science Riview*.



19. MAMARASULOVICH, A. B. (2018). Zamonaviy sivilizatsiya rivoji va uning axloqiy mezonlari. *TDPU ILMIY AXBOROTLARI*.
20. Абсатторов, Б. М. (2022). ТАСАВВУФ–ЎЗ-ЎЗИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ВА ҲАҚИҚАТНИ БИЛИШ ЙЎЛИ СИФАТИДА. *Gospodarka i Innowacje.*, 30, 167-173.
21. Nizomi, A. B. M., & Al-Khorazmi, K. A. O. (2022). Sufism as a way of self-implementation and knowledge of the truth. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 11(11), 199-204.
22. Mukhammadievich, K. J., & Mamarasulovich, A. B. (2022). POSITION OF AL-FARABI AND IBN SINA IN THE CONFLICT OF PHILOSOPHY AND SUFISM. *Conferencea*, 46-56.
23. Mukhammadievich, K. J., Mamarasulovich, A. B., & Olimjanovich, X. A. (2022, December). THE POSITION OF AL-FARABI AND IBN SINA IN THE CONTROVERSY OF THE HISTORY OF PHILOSOPHY AND SUFISM. In *E Conference Zone* (pp. 17-25).
24. Муҳаммад, Ж. (2011). Хожа Муҳаммад Порсо ва унинг «Фасл ал-хитоб» асари [Хваджа Муҳаммад Парса и его труд «Фасл алхитаб»]. *СИНО маънавий-маърифий, илмий-адабий, фалсафий ирфоний уч ойлик журнали*.
25. Холмуминов, Д. М. (2022). «ҚИЁСИЙ ТАСАВВУФШУНОСЛИК»: МЕТОДОЛГИЯ ВА ФАН. *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ КОНСЕНСУС*, 3(2).
26. Холмўминов, Ж. М. (2022). ЖОМИЙНИНГ ФАЛСАФИЙ АСАРЛАРИДА «КОМИЛ ИНСОН» ТУШУНЧАСИНИНГ ШАРҲИ. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 1(9), 344-347.
27. Холмўминов, Ж. М. (2022). «ҚИЁСИЙ ТАСАВВУФШУНОСЛИК»–ТАСАВВУФ ТАРИХИ ВА ФАЛСАФАСИ ДОИРАСИДАГИ ЯНГИ ФАН СИФАТИДА. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(5), 194-213.
28. Холмўминов, Ж. М. (2022). ҒИЁСИДДИН АЛИ ЯЗДИЙ–АМИР ТЕМУРНИНГ ҲАРБИЙ ЮРИШЛАРИ МУАРРИХИ. *Academic research in educational sciences*, 3(4), 191-202.
29. Kholmuminov, J. M. (2022). THE POSITION OF TASAVVUF AND IRFAN IN MAVERUNNAHR AND KHORASAN: IBN AL-ARABI AND ABDURAHMAN JAMI (A COMPARATIVE ANALYSIS). *Oriental*



- renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(9), 76-92.
30. Холмуминов, Д. М. (2021). ТАСАВВУФНИ ШАКЛЛАНТИРГАН МАНБАЛАР МУАММОСИ ҚИЁСИЙ ТАСАВВУФШУНОСЛИК ТАҲЛИЛИДА. *Исследование Ренессанса Центральной Азии*, 2(2).
 31. Холмўминов, Ж. М. (2021). МОВАРОУННАҲР ФАЛСАФИЙ-ИРФОНИЙ МАКТАБЛАРИ ВА ИБН АЛ-АРАБИЙ ТАЪЛИМОТИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(10), 803-811.
 32. Холмуминов, Д. (2021). ИЗУЧЕНИЯ ИСТОРИИ СУФИЗМА—ОДНА ИЗ ОСНОВ РАЗВИТИЯ ОБЩЕСТВЕННОГО СОЗНАНИЯ. *Academic research in educational sciences*, 2(11), 1145-1150.
 33. Kholmuminov, J., & Narzulla, J. (2020). INFLUENCE OF VAHDAT UL-WOOJUDE PHILOSOPHY (UNITY OF BEING) ON NAKSHBANDIYA DOCTRINES Transformation processes and special features. *European Journal of Molecular & Clinical Medicine*, 7(2), 297-307.
 34. Kholmuminov, J., & Narzulla, J. (2020). INFLUENCE OF VAHDAT UL-WOOJUDE PHILOSOPHY (UNITY OF BEING) ON NAKSHBANDIYA DOCTRINES. *Solid State Technology*, 63(6), 26-34.
 35. Холмуминов, Д. М. (2020). ВАҲДАТ УЛ-ВУЖУД ТЕОЛОГИК ТАЪЛИМОТИ ВА НАҚШБАНДИЯ ТАРИҚАТИ. *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ КОНСЕНСУС*, 1(1).
 36. Холмуминов, Д. М. (2020). УЧЕНИЯ НАКШБАНДИЯ И ФИЛОСОФИЯ «ВАХДАТ УЛ-ВУДЖУД» (ЕДИНСТВО БЫТИЯ). *Qazaqtaný*, 74.
 37. Safoyevich, J. X., & Farrukh, N. (2021). The Relationship Between the West and the Islamic World in International Geopolitical Processes. *Middle European Scientific Bulletin*, 17, 280-283.
 38. Sapayevich, J. X. (2022). OPPORTUNITIES OF CENTRAL ASIAN STATES IN THE SYSTEM OF INTERNATIONAL GEOPOLITICAL RELATIONS. *World Bulletin of Social Sciences*, 9, 129-131.
 39. Dilorom, K. (2022). The fate and activity of the jadids in the soviet period. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 11(10), 207-213.
 40. Mamarasulovich, A. B. (2022). RELIGIOUS AND PHILOSOPHICAL FOUNDATIONS OF HUMAN MORAL DEVELOPMENT. *American Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 11, 154-163.



41. Negmatov, BM, & Xodjaeva, DY (2021). Amir temur va milliy-harbiy o'yinlarning rivojlanishi. *ACADEMICIA: Xalqaro multidisipliner tadqiqot jurnali*, 11 (10), 1878-1881.
42. Negmatov, B. M., & Xodjaeva, D. Y. (2021). Amir temur and the development of national-military games. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(10), 1878-1881.
43. Samiyevich, T. B. (2022). Education of youth in the Hadiths of Imam al-Bukhary. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 11(11), 98-101.
44. Samiyevich, T. B. (2022). The role of the scientific heritage of ancestors in improving the intellectual competence of young people. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 11(11), 102-105.
45. Samiyevich, T. B. (2021). THE SIGNIFICANCE OF MIRZO ULUGBEK'S HISTORY OF FOUR ULUSES IN YOUTH EDUCATION. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(11), 269-274.
46. Samiyevich, T. B. (2021). The Role Of The Concept Of Innovative Development In The Education Of The Third Renaissance. *Texas Journal of Philology, Culture and History*, 1, 58-62.
47. Otaboevich, K. M. (2021). Model of Developing Ideological Competence in Students. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 1284-1292.
48. Otaboyevich, K. M. (2022). Study of the problem of developing students' ideological-ideological competence in philosophical-pedagogical literature. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 11(11), 88-93.
49. Otaboyevich, K. M. (2020, December). DEVELOPMENT OF IDEOLOGICAL POTENTIAL OF STUDENTS OF PEDAGOGICAL HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTION ON THE BASIS OF NATIONAL AND SPIRITUAL VALUES. In *Archive of Conferences* (Vol. 10, No. 1, pp. 9-11).
50. Otaboevich, K. M. (2022). Legal fundamentals of developing ideological and ideological competence in students. *World Bulletin of Social Sciences*, 8, 96-100.
51. Sobirova, M. A. (2022). THE SUCCESS OF THE INFORMATION AGE AND PROBLEMS. *American Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 11, 111-115.
52. Собирова, М. А. (2023, January). РАЗВИТИЕ НАЦИОНАЛЬНОЙ ДУХОВНОСТИ ПОСРЕДСТВОМ НАЦИОНАЛЬНЫХ ОБЫЧАЕВ, ТРАДИЦИЙ И ЦЕННОСТЕЙ. In *Proceedings of Scientific Conference on Multidisciplinary Studies* (Vol. 2, No. 1, pp. 172-179).



- 53.Собирова, М. А. (2019). Формирование патриотической позиции молодежи на примерах героизма народов Узбекистана в годы Второй мировой войны. *Эшелоны идут на восток. Эвакуация в Узбекистан в годы Великой Отечественной войны*, 232.
- 54.Собирова, М. А. (2013). Значение духовных ценностей в развитии национальной духовности. *Актуальные проблемы современной науки*, (5), 83-86.
- 55.Жуманиязов, Х. С., & Нигманова, У. Б. (2019). Трудовой подвиг народов Узбекистана в годы Второй мировой войны. *Эшелоны идут на восток. Эвакуация в Узбекистан в годы Великой Отечественной войны*, 145.
- 56.Қаххонова, М. (2022). ЖАДИДЧИЛИК ТАЪЛИМОТИДА ЖАМИЯТ МУҲИТИНИ АХЛОҚИЙ МЕЪЁРЛАШТИРИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ. Теория и практика современной науки.
- 57.Қаххонова, М. (2022). Ма'naviy tarbiya strategiyasi. Ўзбекистон халқаро ислом академияси нашриёт-матбаа.
- 58.Санакулов, А. (2017). Духовность-основа информационной безопасности. *Молодой ученый*, (19), 231-234.10.
- 59.Sanakulov, A. N. (2019). MAINTENANCE OF THE WORLD OUTLOOK SECURITY IN THE INFORMATION SOCIETY. *Социосфера*, (4), 54-57.
- 60.Санакулов, А. Н. (2022, January). ВЫРАБОТКА ИНФОРМАЦИОННОГО ИММУНИТЕТА-КАК ЗАЛОГ ПОВЫШЕНИЯ ИНФОРМАЦИОННОЙ КУЛЬТУРЫ ЛЮДЕЙ. In *Multidiscipline Proceedings of Digital Fashion Conference* (Vol. 2, No. 1).
- 61.Sanaqulov, A. N. Prospective Directions of Effective Use of Virtual Technologies in Increasing the Power of Youth. *JournalNX*, 897-903.
- 62.Nazarovich, S. A., & Olimjanovich, X. A. (2022). FEATURES OF PREVENTING METAMORPHOSIS OF SPIRITUAL AND MORAL VALUES IN THE VIRTUALIZATION OF PUBLIC LIFE. *International Journal of Early Childhood Special Education*, 14(7).
- 63.Olimjanovich, X. A. (2023, January). МОНИЙ ТАЪЛИМОТИ ВА ТАСАВВУФ ЎЗИГА ХОС ЎХШАШЛИК ВА ФАРҚЛАР. In *Proceedings of Scientific Conference on Multidisciplinary Studies* (Vol. 2, No. 1, pp. 244-251).
64. Эшпулатов, М. (2023, January). ЎҚУВЧИ ЁШЛАРДА МАЪНАВИЙ-ТАРБИЯВИЙ КОМПЕТЕНЦИЯЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА АДАБИЁТ ОМИЛИ. In *Proceedings of Scientific Conference on Multidisciplinary Studies* (Vol. 2, No. 1, pp. 186-195).

